O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYaLAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
S. Normamatov
2023-yil "28" avgust

# MUMTOZ POETIKA MUAMMOLARI

FANI BO‘YICHA

## SILLABUS

**Bilim sohasi:** 200 000 – San’at va gumanitar fanlar

**Ta’lim sohasi:** 230 000 – Tillar

**Mutaxassislik:** 70230104 - Adabiyotshunoslik (jahon adabiyoti)

Toshkent – 2023

| Fan/modul kodi | | Fan/modul turi<br>tanlov | | Ta'lim tili<br>o'zbek | | | Ishlab chiqilgan o'quv yili<br>2023-2024 | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Semestr | Har bir semestrdagi fan/modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 2 | Mumtoz poetika muammolari | 4 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 60 | 120 |
| | Jami: | 4 | 4 | 60 | 30 | 0 | 30 | 0 | 60 | 120 |

### Fan maqsadi (FM)

**Fanni o'qitishdan maqsad** mumtoz poetikaning nazariy muammolarini o'rganish, milliy adabiyot tarixini nazariy aspektda o'rganish va uning madaniy va ma'naviy ildizlariga oid muhim muammolarni tahlil qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Adabiyotshunoslik asarlarini va adabiy namunalarni nazariy aspektda o'rganish orqali talabalarning dunyoqarashi va ilmiy tafakkurini kengaytirish nazarda tutilgan.

### Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar

| | |
|---|---|
| 1. | O'zbek adabiyoti tarixi (O'zAdTar 2.3 15) |
| 2. | O'zbek adabiyoti tarixi (O'zAdTar 2.3 16) |
| 3. | Aruz va mumtoz poetikaga kirish (AMPK 15) |
| 4. | Navoiyshunoslik (Navoiy 2.3 9) |



### Ta'lim natijalari (TN)

***Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:***

- mumtoz poetikaning vazifalarini aniqlash va uni adabiy-badiiy jarayonning tarixiy xususiyatlarini o'rganishga qaratish, milliy adabiyot tarixining nazariy masalalari bilan talabalarni tanishtirish va ulardan muhim xulosalar chiqara bilish, tarixiy, adabiy va ilmiy asarlar haqida ***bilimga ega bo'lishi;***
- talabalarda badiiy matn mohiyatini chuqurroq anglash uchun mumtoz janrlarni tadqiq etish ko'nikmasini hosil qilish, mavjud matnlarni tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish ko'nikmasini shakllantirish, o'zbek mumtoz adabiyotining tarixiy ildizlari va namunalarini tarixiy poetika masalalari bilan aloqadorlikda o'rganishga kirishish ***ko'nikmasiga ega bo'lishi;***

talabalarga o'zbek mumtoz adabiyotining namunalarini Sharq va jahon adabiyoti kontekstida qarash lozimligini uqtirish, egallangan bilim va malakani xalq ma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***

### Talabalarning kreditlarni olish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan "OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom"ning 15- va 30-bandlariga asosan "Adabiyotshunoslik tarixi" fanidan 1-semestrda 150 soat *o'quv yuklamasini o'zlashtirgan*, fan dasturi (sillabus)da belgilangan baholash tartibiga ko'ra *ijobiy baholanib, kasbiy kompetensiyalarni yetarli darajada egallagan* talabaga 1-semestrda 5 **kredit beriladi**.

Talaba belgilangan *ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda* **kreditlar berilmaydi**.

Talabalarning bilimini baholash O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**

**5 (a'lo) baho** - talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

**4 (yaxshi) baho** - talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda;

**3 (qoniqarli) baho** - talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi. fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi hamda fan haqida tasavvurga ega deb topilganda;

**2 (qoniqarsiz) baho** - talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** o'tilgan mavzular asosida *yozma* shaklda o'tkaziladi.

Oraliq nazorat yozma shaklda o'tkazilganda ma'ruza, amaliy (seminar) mavzular asosida savollar oldindan tuzilib, kafedra yig'ilishida tasdiqlanadi. Har bir biletda 3tadan savol beriladi. Ikkita savol nazariy xarakterda, bitta savol amaliy xarakterda (muayyan asar yoki konkret manba tahlili) bo'ladi. Tayyorgarlik ko'rish uchun 5 daqiqa, savollarga javob yozish uchun oltmish daqiqa vaqt beriladi. Nazariy ikkita savolga 2 balldan, amaliy savolga 1 ball beriladi. Masalani aniqlashtirish uchun qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

**Yakuniy nazorat:** semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha *og'zaki* shaklda o'tkaziladi.

Oraliq nazorat og'zaki shaklda o'tkazilganda ma'ruza, amaliy (seminar) mavzular asosida savollar oldindan tuzilib, kafedra yig'ilishida tasdiqlanadi. Har bir biletda 3tadan savol beriladi. Ikkita savol nazariy xarakterda, bitta savol amaliy xarakterda (muayyan asar yoki konkret manba tahlili) bo'ladi. Tayyorgarlik ko'rish uchun 5 daqiqa, savollarga javob berish uchun o'n besh daqiqa vaqt beriladi. Har bir savol uchun 30 balldan beriladi. Masalani aniqlashtirish uchun qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

***Izoh:** Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

| Fan mazmuni | | Soat |
|---|---|---|
| **Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M) (2-semestr)** | | 30 |
| M1 | Mumtoz poetika haqida umumiy ma'lumot | 2 |
| M2 | Ilmi balog'a – mumtoz poetikaning ilk bosqichi sifatida | 2 |
| M3 | Ilmi adab va ilmlar uchligi | 2 |
| M4 | Mumtoz adabiyotshunos-likda aruz ilmi | 2 |
| M5 | Turkiy aruzshunoslik asoslari | 2 |
| M6 | Turkiy aruzshunoslik asoslari | 2 |
| M7 | Mumtoz adabiyotshunos-likda ruboiy vaznlarini aniqlash tamoyillari | 2 |
| M8 | Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari | 2 |
| M9 | Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she'r nav'lari | 2 |
| M10 | Ilmi badi' yoki badiiy san'atlar talqini | 2 |
| M11 | Ilmi badi' yoki badiiy san'atlar talqini | 2 |
| M12 | Mumtoz adabiyotshunoslikda qofiya ilmi | 2 |
| M13 | Sharq mumtoz adabiyotida an'anaviylik va adabiy izdoshlik | 2 |
| M14 | Mumtoz poetika muammolari xorijlik olimlar talqinida | 2 |
| M15 | Mumtoz poetika muammolari xorijlik olimlar talqinida | 2 |
| **Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A) (2-semestr)** | | 30 |
| A1 | Ilmi balog'aga doir zamonaviy tadqiqotlar sharhi. | 2 |
| A2 | Ilmlar uchligi A.Hojiahmedov talqinida | 2 |
| A3 | Alisher Navoiy – aruzshunos. | 4 |
| A4 | Fitratning "Adabiyot qoidalari" va "Aruz haqida" risolalarida aruz nazariyasiga doir qarashlar. | 2 |
| A5 | Ruboiy vaznlarini aniqlash tamoyillari. | 2 |
| A6 | She'riy janrlar, vazn va qofiya munosabati. | 2 |
| A7 | Temuriylar davri adabiyotshunosligida poetika masalalarining o'rganilishi. | 4 |
| A8 | XX asr boshlari adabiyotshunosligida mumtoz poetika masalalari. | 4 |
| A9 | Atoulloh Husayniyning "Badoe' us-sanoe'" asarida lafziy san'atlar zikri. | 2 |
| A10 | Mumtoz naziralar va taxmislar. | 2 |
| A11 | G'arb va rus poetikashunos olimlari tadqiqotlari sharhi. | 4 |

| Mustaqil ta'lim (MT) (2-semestr) | | | soat |
|---|---|---|---|
| T/r | **Mustaqil ta'lim mavzulari** | **Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va turlari** | 60 |
| 1 | Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida mumtoz poetika masalalari. | Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish. | 2 |
| 2 | Xamsanavislik an'anasida shakl va mazmun birligi. | Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish. | 2 |
| 3 | Navoiy va Boburning aruzga doir risolalari qiyosi. | Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish. | 2 |
| 4 | Mumtoz adabiyotshunoslikda adabiy tur va janrlar haqidagi fikrlar taraqqiyoti. | Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish. | 2 |
| 5 | Mumtoz qofiya talqini (Shams Qays Roziy va Shayx Ahmad Taroziy asarlari | Anjumanga tezis tayyorlash | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | asosida). | | |
| 6 | Navoiy she'riyatida qofiya turlari. | Berilgan mavzu bo'yicha kurs ishini bajarish | 2 |
| 7 | Navoiy she'riy san'atlarining nazariy talqinlari. | Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish. | 2 |
| 8 | Bobur masnu' she'rining o'ziga xos jihatlari. | Berilgan mavzu bo'yicha esse yozish | 2 |
| 9 | Ogahiyning she'riy shakllar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. | Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish. | 2 |
| 10 | Mashrab musabba'lari poetikasi. | Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish. | 2 |
| 11 | Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida adabiy tur va janrlar munosabati. | Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish. | 2 |
| 12 | "Funun ul-balog'a"da musammat turlari. | Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish. | 2 |
| 13 | Mumtoz adabiyotda mutalavvun hodisasi. | Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish. | 2 |
| 14 | Fitrat "Aruz haqida" qo'llanmasida aruzning zamonaviy shakllar (paradigma, turkum) va usullar ("chirmanda usuli") orqali talqini. | Anjumanga tezis tayyorlash | 2 |
| 15 | Mumtoz poetika Devin De Uiss talqinida. | Berilgan manbalarni tarjima qilish | 2 |

### Asosiy adabiyotlar


1. Исхоков Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O'zbekiston, 2014.
2. Шарк мумтоз поэтикаси: Манба ва талкинлар. Нашрга тайёрловчи, талкин ва шарҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси илмий нашриёти, 2008.
3. Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият луғати (адабий жанрлар, шеър санъатлари, аруз ва кофия). – Т.: Янги аср авлоди, 2008.
4. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish – T.: Akademnashr, 2020.
5. Илми балоға фанидан маърузалар. Тузувчи З.Шарипов. – Т.: Movarounnahr, 2014.


### Qo'shimcha adabiyotlar


1. Алишер Навоий. Мезонул авзон. МАТ. 20 жилдлик. 16-жилд. – Тошкент: Фан, 2000.





2. Бобур Заҳириддин. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. Тошкент: Фан, 1971.
3. Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. – Т.: Хазина, 1996.
4. Ҳусайний Атоуллоҳ. Бадойиъу-с-санойиъ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
5. Жўракулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси. Тошкент: Turon-iqbol, 2017.
6. Куделин А. Средневековая арабская поэтика (вторая половина VIII-XI век). – М.: Наука, 1983.
7. Мулласодикова Н. Балоғат илмида ийжознинг қўлланилиши // Шаркшунослик. 2011. – № 1. – Б.38–42.
8. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013. – 408 b.
9. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика (X-XV вв.) – М.: Наука, 1989.
10. Julie Scott Meisami. Structure and Meaning in medieval Arabic and Persian poetry. – London, 2003.
11. Ҳожиахмедов А. Ўзбек аруз луғати. – Т.: Шарқ, 1998.
12. Алишер Навоий: комусий луғат. 1-2 жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Sharq, 2016.


### Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

| | |
|---|---|
| Muallif: | Dilnavoz Yusupova "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori |
| E-mail: | mumtoza_dil@mail.ru |
| Tashkilot: | Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasi |
| Taqrizchilar: | Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU "Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori I.Yoqubov<br>Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori [illegible] |

Mazkur Sillabus universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2023 yil avgustdagi __-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasining 2023 yil avgustdagi __-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

| | |
|---|---|
| O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i | V. Nazarov |
| Fakultet dekani | B. Abdushukurov |
| Kafedra mudiri | N. Jabborov |
| Tuzuvchi | A. Dehqonov |